FARG‘ONA VILOYATI OLTIARIQ TUMAN HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 21 - iyun 101-11-151-Q/23 Oltiariq tuman hokimligi

Umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llariga yo‘l belgisi o‘rnatishga ruxsat berish haqida

Tuman hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l taransport xodisalari va huquqbuzurliklarni oldini olish maqsadida tumanni uchta hududidan 720 mm bo‘lgan magistral gaz quviri kesib o‘tganligi sababli, tumanni Bo‘rbonliq qishlog‘idan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan 4R-112 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 252,8 kmdan 253,0 kmgacha oralig‘ida, tumanni Yangiarab qishlog‘idan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi mahalliy ahamiyatiga ega bo‘lgan 4K-911 “AR-147 avtoyo‘li Katput qishlog‘i” avtomobil yo‘lining 4,6 kmdan 4,8 kmgacha oralig‘ida hamda tumanni Bo‘rbonliq mahalla fuqarolar yig‘inidan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi mahalliy ahamiyatiga ega bo‘lgan 4K-911 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 7,9 kmdan 8,3 kmgacha bo‘lgan avtomobil yo‘llarining o‘ng va chap tomonlarida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” ta’qiqlovchi belgisini “GAZ” ogohlantiruvchi belgisi bilan birgalikda o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida “Maxsusenergogaz” AJ ning tuman hokimi nomiga yozgan aloqa xati, Vazirlar Mahkamasining 12.04.2022-yildagi 172-son qarori ,“Qurilish me’yorlari va qoidalari” (QMQ 2.05.06-97) va taqdim etilgan hujjatlar bilan tanishib chiqib, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16,21,24-moddalarini qo‘llab

QAROR QILAMAN

1. “Maxsusenergogaz” AJ ning tuman hokimi nomiga Oltiariq tumanini uchta hududidan 720 mm bo‘lgan magistral gaz quviri kesib o‘tganligi sababli

avtomobil yo‘lining o‘ng va chap tomonlarida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” ta’qiqlovchi belgisini “GAZ” ogohlantiruvchi belgisi bilan birgalikda o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi aloqa xati va taqdim etilgan hujjatlar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oltiariq tumanining uchta hududidan 720 mm bo‘lgan magistral gaz quvuri kesib o‘tganligi sababli, tumanning Bo‘rbonliq qishlog‘idan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan 4R-112 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 252,8 kmdan 253,0 kmgacha oralig‘ida, tumanning Yangiarab qishlog‘idan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi mahalliy ahamiyatiga ega bo‘lgan 4K-911 “AR-147 avtoyo‘li Katput qishlog‘i” avtomobil yo‘lining 4,6 kmdan 4,8 kmgacha oralig‘ida hamda tumanning Bo‘rbonliq qishlog‘idan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi mahalliy ahamiyatiga ega bo‘lgan 4K-911 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 7,9 kmdan 8,3 kmgacha bo‘lgan avtomobil yo‘lining o‘ng va chap tomonlarida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” taqiqlovchi belgisini “GAZ” ogohlantiruvchi belgisi bilan birgalikda o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Oltiariq tuman Yo‘llardan foydalanish UK rahbari (N.Yo‘ldashov)ga 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” ta’qiqlovchi belgisini “GAZ” ogohlantiruvchi belgisi bilan birgalikda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Oltiariq tumani IIB YHXG ga;

3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” ta’qiqlovchi belgilari o‘rnatilgan hududlarda harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport xodisalarini oldini olish maqsadida transport vositalari harakatida yo‘l harakati qoidalariga to‘la rioya qilinishini muntazam nazoratga olib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qarorni bajarlishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Oripov zimmasiga yuklatilsin.

Oltiariq tumani hokimi **Sh.Turdaliyev**